EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайбергенова Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI Norov Murodjon Maxmudovich	1336
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR..... Maxkamov Otabek Muxammadjonovich	1342
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI..... Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	1351
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	1354
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI Xamdamiyev Shaxzod Ilxom o'g'li	1360
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	1365
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI Jalalova Dildora Jamolovna	1371
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA..... Karshieva Marjona Alisher kizi	1375
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI Qurbonova Malika Ahmad qizi	1380
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI Uzoqov Farhod G'afforovich	1384
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI.... Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	1388
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI..... Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	1392
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	1396
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI Muyassarzoda Fayziyeva	1402
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna	1408
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI..... Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	1414
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR..... Zakirova Oisha	1425
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	1431
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI..... Nuraliyeva B.	1437



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
Raximov Xasan Shukurjonovich	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
Kurolov Maksud Obitovich	
TA'LIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
Esanova Shohida	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
Хамзина Динара Рашатовна	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
Masharipova Sevara Bekturdi qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARI	1487
Marimova Indira Rasul qizi	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODEL.....	1492
Murodov Orif Jumayevich	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
Киличева Ф.Б.	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI BAHOLASH	1507
Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
Маденова Эльмира Нзаматдиновна	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
Мансуров Обид Зайнидинович	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MECHANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI	1554
Xashimova Salima Nigmatullayevna	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
FARG'ONA VODIYSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TO'QIMACHILIK KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATI TAHLILI VA ULARNI BAHOLASH	1609
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdurkarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	
BIRLAMCHI TIBBIY-SANITARIYA MUASSASALARINI NATIJADORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI	1627
S.J. Sultanov	
TIJORAT BANKLARIDA KOMPLAENS NAZORAT VA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1633
Ulashbayev Shohruh Abdivoxobovich	
BIOMASSA ASOSIDA OZUQA ISHLAB CHIQARISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKGA ERISHISHNING AYRIM JIHATLARI	1639
Xazratkulov Niyoz Namazbayevich	
STRATEGIC MANAGEMENT AND DEVELOPMENT OF CORPORATE TALENTS	1644
Shoyunusova Arofat, Sanjar Mirzaliev	
AGROTIZIMDA ANOR YETISHTIRISHNING O'RNI VA IQTISODIY AHAMIYATI	1648
Ortiqov Sulton Davronqul o'g'li	
TO'QIMACHILIK SANOATINI HOZIRGI KUNDAGI TAHLILI	1652
Mahmudova Chinora Anvar qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHDA IMTIYOZLAR VA KAFOLATLAR TIZIMINING AHAMIYATI	1657
Nizamov Xusniddin Fazliddinovich	



SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARINING IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRINING EKONOMETRIK TAHLILI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	1663
Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li	
MINTAQAVIY RIVOJLANISH SHAROITIDA SHAHARLAR AGLOMERATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI.....	1670
Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR.....	1674
O'roqov Firdavs Ortiquyoz o'g'li	
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И МЕТОДЫ ФИНАНСОВОГО АНАЛИЗА В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ.....	1678
Бекбаева Феруза Бахтиеровна	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA BUDJET BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI TASHKIL QILISHNING AMALIY JIHATLARI.....	1684
Rashidov Zuhridin Sanjar o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1690
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАКТИКИ УПРАВЛЕНИЯ ВАЛЮТНЫМИ РИСКАМИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ	1695
Тугалов Бобур Қаршибой угли	
DYUZDO SPORTIDA JAROHATLAR PROFILAKTIKASI VA TIBBIY TIKLANISH USULLARINING SAMARADORLIGI.....	1699
Tangriyev Abdullo Tovashovich	
HAVO TRANSPORTI ORQALI YUK TASHUVCHI TADBIRKORLIK SHAKLLARI VA UNDAGI MUOMMOLAR	1703
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
HUDUDIY IQTISODIYOTDA INNOVATSION SIYOSAT MEKANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING TIZIMLI MODELI	1709
G'aniyev Sanjar Poziljon o'g'li	
СОВРЕМЕННАЯ МОДЕЛЬ УЧЕТА ЗАТРАТ И АУДИТА В УЗБЕКИСТАНЕ: НАЦИОНАЛЬНАЯ БАЗА И МСА.....	1716
Юлчиев Ойбек Улуғбек ўғли	
TIJORAT BANKLARIDA YANGI BANK XIZMATLARINI JORIY ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH YO'LLARI	1723
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH DAVRIDA KICHIK BIZNES IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH.....	1731
Isroilov Dilshodbek Rustamovich, Isroilova Odina Rustambek qizi	
O'RMON XO'JALIGINI MOLİYALASHTIRISHDA MOLİYAVIY RESURLAR VA MANBALAR.....	1737
Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna	
ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI.....	1743
Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna	



ZAMONAVIY JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ- OVQAT XAVFSIZLIGI, ISROFI VA YO'QOTISHLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI



Nazarova Gulbahor Raxmonkulovna

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs magisteri,
Email: gulbakhor.nazarova@gmail.com
ORCID: 0009-0003-9841-8789

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, iqlim o'zgarishi ta'siri va geosiyosiy tangliklar oqibatida yuzaga kelayotgan muammolar tahlil etilgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining isrofi va yo'qotilishi darajasini qisqartirish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va davlat siyosatining o'rni o'rganiladi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda samarali resurs boshqaruvi hamda agrologistika tizimini takomillashtirish ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Oziq-ovqat xavfsizligi, isrof, logistika, raqamli texnologiyalar, barqaror rivojlanish, iqlim o'zgarishi, agrosanoat.

Abstract. This article analyzes the challenges of ensuring food security in the modern global economy amid supply chain disruptions, climate change impacts, and geopolitical tensions. It examines innovative approaches, modern technologies, and government policies aimed at reducing food loss and waste. The study highlights the importance of efficient resource management and the improvement of agrologistics systems in achieving sustainable development goals.

Key words: Food security, food waste, logistics, digital technologies, sustainable development, climate change, agro-industry.

Аннотация. В статье исследуются проблемы обеспечения продовольственной безопасности в современной мировой экономике на фоне нарушений цепочек поставок, последствий изменения климата и геополитической нестабильности. Рассматриваются инновационные подходы, современные технологии и роль государственной политики в сокращении потерь и отходов продовольствия. Подчеркивается важность эффективного управления ресурсами и совершенствования агрологистических систем для достижения целей устойчивого развития.

Ключевые слова: Продовольственная безопасность, потери продовольствия, логистика, цифровые технологии, устойчивое развитие, изменение климата, агропромышленный сектор.

KIRISH

Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat isrofi va yo'qotishlari zamonaviy global iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ular insoniyat farovonligi, ekologik barqarorlik hamda ijtimoiy adolat bilan bevosita bog'liqdir. Oziq-ovqat xavfsizligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2-barqaror rivojlanish maqsadi ("Zero Hunger") bilan hamohang bo'lib, faol va sog'lom hayot uchun yetarli miqdorda xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatni doimiy ravishda iste'mol qilish imkonining mavjudligini anglatadi. AQSh Qishloq xo'jaligi departamentining (USDA, 2020) ta'rifiga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi yetarli resurs yoki imkon bo'lmaganligi sababli insonlarning barqaror oziq-ovqat iste'mol qila olmaslik holatini ifodalaydi. Bugungi kunda ushbu muammo dunyo bo'yicha 820 milliondan ortiq kishiga ta'sir etmoqda va ayniqsa daromadi past davlatlarda yashovchi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlari uchun dolzarbdir.



Oziq-ovqat xavfsizligining buzilishi inson hayotining turli jabhalariga ta'sir ko'rsatadi: bu holat sog'liqni saqlash tizimida kasalliklar xavfining oshishi, ta'lim olish imkoniyatlarining torayishi va iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanishi orqali jamiyat farovonligiga salbiy ta'sir etadi (Toromade va boshq., 2024). Shu bilan birga, oziq-ovqat yo'qotishlari va isrofi mazkur muammoni yanada keskinlashtiradi. Oziq-ovqat yo'qotishlari — mahsulot yetishtirish, yig'ib-terib olish, qayta ishlash va taqsimot jarayonlarida yuzaga keladigan miqdoriy kamayish bo'lsa, oziq-ovqat isrofi — iste'mol bosqichida hali yaroqli mahsulotning tashlab yuborilishidir (Grewal va boshq., 2024). FAO (2021) ma'lumotlariga ko'ra, insonlar iste'moli uchun yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb uchdan bir qismi, ya'ni har yili 1,3 milliard tonna miqdordagi oziq-ovqat isrof qilinadi. Bu hodisa ishlab chiqarishdan tortib chakana savdogacha bo'lgan barcha bosqichlarda kuzatiladi va global oziq-ovqat tizimidagi tizimli samaradorsizliklarni ochib beradi.

Oziq-ovqat xavfsizligi, isrofi va yo'qotishlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular ijtimoiy tenglik va iqtisodiy barqarorlikka ham bevosita ta'sir qiladi. Oziq-ovqat resurslarining samarasiz taqsimlanishi natijasida bir tomonda millionlab insonlar ochlikdan aziyat chekayotgan bo'lsa, boshqa tomonda yaroqli oziq-ovqat chiqindi sifatida tashlab yuborilmoqda. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy yo'qotishlarni, balki ekologik xavflarni ham keltirib chiqarmoqda. Oziq-ovqat chiqindilarining poligonlarda chirishi natijasida hosil bo'ladigan metan gazi global issiqxona gazlari chiqindilarining 8–10 foizini tashkil etadi, bu esa iqlim o'zgarishining tezlashuviga sabab bo'ladi. Natijada, oziq-ovqat xavfsizligidan eng ko'p aziyat chekayotgan aholining o'zi iqlim o'zgarishi oqibatlaridan ham eng ko'p zarar ko'radi.

So'nggi yillarda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu paradoksni yanada chuqurroq yoritib bermoqda. Urugo va boshqalar (2024) tadqiqotida past daromadli uy xo'jaliklari oziq-ovqatdan samarali foydalanish uchun zarur infratuzilma va resurslar yetishmasligi sababli isrof va yo'qotishlardan eng ko'p zarar ko'rishi aniqlangan. Wani va boshqalar (2024) esa rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat yo'qotishlarining 45 foizgacha qismi hosildan keyingi qayta ishlash va saqlash infratuzilmasining sustligi bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda esa asosiy isrof manbai — chakana savdo va uy xo'jaliklari darajasidagi ortiqcha iste'mol va marketing siyosatidir.

Shuningdek, iqlim o'zgarishi omili ham oziq-ovqat xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Harorat va yog'ingarchilik rejimlarining o'zgarishi, qurg'oqchilik va toshqinlar kabi ekstremal ob-havo hodisalari hosildorlikni pasaytirib, oziq-ovqat ta'minotining barqarorligiga tahdid solmoqda. Bu esa narxlarning ko'tarilishiga, oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatlashuviga va kam daromadli uy xo'jaliklarining sotib olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, u hukumat siyosati, ishlab chiqaruvchilar, chakana savdo tarmoqlari va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni talab etadi. Innovatsion texnologiyalar — masalan, blokcheyn, IoT, aniqlik qishloq xo'jaligi (precision agriculture), ma'lumotlar tahlili (Big Data) — ta'minot zanjirining shaffofligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, aholining oziq-ovqatni tejash madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ma'rifiy kampaniyalar, ortiqcha mahsulotlarni qayta taqsimlash va oziq-ovqat banklarini qo'llab-quvvatlash kabi chora-tadbirlar ham dolzarbdir.

Umuman olganda, oziq-ovqat xavfsizligi, isrofi va yo'qotishlarini kamaytirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu o'zaro bog'liq muammolarni ilmiy asosda tahlil qilish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish va global hamkorlikni kuchaytirish orqali insoniyat uchun adolatli, barqaror va isrofchilikdan holi oziq-ovqat tizimini shakllantirish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat isrofini kamaytirish masalalari zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu jarayon iqtisodiy barqarorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy tenglikning uzviy bog'liqligini ifodalaydi. So'nggi yillarda ushbu muammo global miqyosda chuqur o'rganilib, xalqaro ilmiy tadqiqotlarda uni kamaytirishning innovatsion va kompleks yondashuvlari ishlab chiqilmoqda.

Varzakas va Smaoui [1] tomonidan olib borilgan tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash jarayoni 2030 yilgacha mo'ljallangan BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadlari bilan bog'langan. Ular oziq-ovqat xavfsizligini faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali emas, balki sog'lom ovqatlanish, ekologik muvozanat va ijtimoiy adolatni birlashtiruvchi barqaror oziq-ovqat tizimlari orqali ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar. Mazkur yondashuv oziq-ovqat madaniyati va davlat siyosatining uyg'unligini global strategik omil sifatida ko'rsatadi.

Guiné [4] global o'zgarishlar fonida oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq ekologik va ijtimoiy muammolarni tahlil qilib, iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi va aholining o'sishi kabi omillarni tizimli xavf sifatida baholaydi. Uning fikricha, hozirgi oziq-ovqat tizimlari global talabni qondirish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ular barqarorlik tamoyillarini ta'minlamayapti. Shu bois resirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va iste'mol modelini o'zgartirish muhim ahamiyatga ega.



Heydari [2] o'z tadqiqotida oziq-ovqat isrofini kamaytirish iqlim barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini asoslab beradi. U ko'p komponentli yondashuv (multifaceted approach) modeli orqali ishlab chiqarish, logistika va iste'mol bosqichlarida raqamli texnologiyalar, IoT, va blokcheyn yechimlarining samaradorligini ko'rsatgan. Muallifga ko'ra, ushbu texnologiyalar ta'minot zanjirlarining shaffofligini oshirib, chiqindilarni aniqlash va kamaytirish imkonini beradi.

Manzoor va hammualliflar [6] tomonidan olib borilgan keng qamrovli tadqiqot oziq-ovqat isrofini kamaytirish orqali BMT Barqaror Rivojlanish Maqsadi 12.3 ("Responsible Consumption and Production") ni amalga oshirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni tahlil qiladi. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, dunyoda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqatning 30–40 foizi turli bosqichlarda yo'qotiladi, bu esa trillionlab dollarlik iqtisodiy zarar bilan birga, issiqxona gazlari chiqindilarini ham oshiradi. Tadqiqotda energiya samaradorligi, resurslarni tejash va adolatli oziq-ovqat taqsimotini kuchaytirish global barqarorlikning asosi sifatida e'tirof etilgan.

Arowosegbe va hammualliflar [7] qishloq xo'jaligi ta'minot zanjirida yuzaga keladigan oziq-ovqat isrofi muammosini tizimli tahlil qilib, sun'iy intellekt va optimallashtirilgan logistika tizimlari yordamida samaradorlikni oshirish strategiyalarini ishlab chiqqan. Tadqiqotda real vaqt kuzatuv, prognozlash algoritmlari va talabga mos ishlab chiqarish modeli orqali isrof darajasini 20–25 foizga kamaytirish mumkinligi isbotlangan.

Ogwu va hammualliflar [8] Global Janub mamlakatlaridagi oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq murakkabliklarni o'rganib, iqtisodiy va siyosiy cheklovlar bilan bir qatorda infratuzilma yetishmasligini eng asosiy omil sifatida ko'rsatadi. Ular taklif etgan "multi-layered food security model" oziq-ovqat ishlab chiqarish, taqsimot, iste'mol va chiqindi boshqaruvi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiradi.

IRISO [5] esa oziq-ovqat chiqindilarining shahar darajasidagi oqibatlarini tahlil qilib, kommunal chiqindilarning 35–40 foizini oziq-ovqat tashkil etishini qayd etadi. U shahar boshqaruvi strategiyalarini takomillashtirish, oziq-ovqat banklarini rivojlantirish va qayta taqsimlash mexanizmlarini joriy etish orqali chiqindilarni kamaytirish imkoniyatlarini taklif etgan.

Tkemaladze [3] o'zining nazariy tadqiqotida oziq-ovqat xavfsizligini barqaror rivojlanish konsepsiyasining integral qismi sifatida tahlil qiladi. Muallif oziq-ovqat xavfsizligini nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va axloqiy javobgarlik doirasida ko'rib chiqishni taklif etadi.

Yuqoridagi manbalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, zamonaviy ilmiy yondashuvlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va isrofni kamaytirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarni ilgari suradi:

1. ta'minot zanjirlarining raqamlashtirilishi va shaffofligini oshirish;
2. saqlash va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish;
3. iste'mol madaniyatini o'zgartirish orqali barqaror iste'molni rag'batlantirish;
4. hukumat, xususiy sektor va fuqarolik jamiyati o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish.

Demak, adabiyotlarda keltirilgan konsepsiyalar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligi, isrofi va yo'qotishlarini kamaytirish masalalari faqat iqtisodiy kategoriyalar bilan cheklanmay, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning ajralmas qismidir. Bu jarayonni samarali boshqarish uchun texnologik innovatsiyalar, siyosiy islohotlar va jamoaviy ongni oshirishga asoslangan kompleks yondashuv talab etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligi, isrofi va yo'qotishlarini kamaytirish masalalari zamonaviy jahon iqtisodiyoti kontekstida tahlil qilindi. Ish analitik-deskriptiv yondashuv asosida olib borildi va xalqaro ilmiy manbalar [1]–[8] ma'lumotlariga tayandi. Deduktiv va taqqoslama tahlil usullari orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi solishtirildi. Empirik asos sifatida FAO, WFP va World Bank ma'lumotlari, shuningdek, 2024–2025 yillardagi ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Kvalitativ tahlil yordamida iqlim o'zgarishi, texnologik innovatsiyalar va oziq-ovqat siyosati o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Tadqiqot maqsadi — global oziq-ovqat tizimlarida yo'qotish va isrof sabablarini o'rganib, ularni kamaytirish bo'yicha innovatsion yechimlar ishlab chiqish hamda barqaror oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslarini shakllantirishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oziq-ovqat xavfsizligi va isrofini kamaytirish muammosi global iqtisodiyotda strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ko'rilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yillikda ishlab chiqarish hajmining o'sishiga qaramay, dunyo bo'yicha har yili ishlab chiqariladigan oziq-ovqat mahsulotlarining qariyb 30–40 foizi yo'qotilmoqda yoki isrof qilinmoqda, bu esa taxminan 1,3 milliard tonna mahsulotga teng (FAO, 2024). Bu holat nafaqat iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi, balki ekologik tizimlarga ham jiddiy zarar yetkazadi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, oziq-ovqat yo'qotishlari va isrofi asosan uchta asosiy bosqichda sodir bo'ladi: ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol jarayonlari. Rivojlanayotgan mamlakatlarda muammo ko'proq ishlab chiqarish va saqlash bosqichida kuzatilsa, rivojlangan davlatlarda iste'molchi xulq-atvori va marketing siyosati asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda [6], [7].



Heydari [2] tadqiqotida global oziq-ovqat ta'minoti tizimidagi chiqindilarni kamaytirish uchun blokcheyn, IoT va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi isbotlangan. Ushbu texnologiyalar orqali ta'minot zanjiri bo'yicha real vaqt ma'lumotlar to'planib, mahsulotlarning harakatini kuzatish, yaroqlilik muddati yaqinlashgan mahsulotlarni tezroq realizatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Bu usul orqali ayrim mamlakatlarda oziq-ovqat chiqindilarini 20–25 foizgacha kamaytirishga erishilgan.

Arowosegbe va hammualliflar [7] esa ta'minot zanjiri optimallashtirish modeli yordamida hosil yig'ishdan keyingi yo'qotishlarni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqdi. Ularning fikricha, ishlab chiqarishdan bozorga yetkazishgacha bo'lgan bosqichlarda transport infratuzilmasi va sovitish tizimlarining yetishmasligi yo'qotishlarning asosiy sababidir. Natijalar shuni ko'rsatadiki, haroratni nazorat qiluvchi omborlar mavjud bo'lgan hududlarda hosil yo'qotishlari o'rtacha 40 foizdan 18 foizgacha qisqargan.

Bundan tashqari, Manzoor va hammualliflar [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotda oziq-ovqat yo'qotishlari iqtisodiy yo'qotishlarga bevosita sabab bo'layotgani qayd etilgan. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, oziq-ovqat chiqindilari tufayli har yili 1 trillion AQSh dollariga teng iqtisodiy zarar yuzaga keladi. Shu bilan birga, chiqindilar poligonlarda chirib, metan gazi ajratib chiqaradi va bu global issiqxona gazlari emissiyasining 8–10 foizini tashkil etadi. Bu holat oziq-ovqat xavfsizligining nafaqat iqtisodiy, balki ekologik inqirozlar bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Guiné [4] va Varzakas & Smaoui [1] tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, oziq-ovqat xavfsizligi faqat ishlab chiqarish hajmiga bog'liq emas — u sog'lom ovqatlanish tizimlari, taqsimot adolati va resurslardan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Ularning fikricha, oziq-ovqat siyosati “ko'proq ishlab chiqarish” emas, balki “ko'proq barqaror ishlab chiqarish” tamoyiliga asoslanishi zarur.

1-jadval. Oziq-ovqat yo'qotishlari va isrofi tahlili (2024 yil ma'lumotlari asosida)

No	Bosqich	Asosiy sabab	Yo'qotish ulushi (%)	Mintaqaviy xususiyat	Tavsiya etilgan texnologik yechim	Manba
1	Ishlab chiqarish	Hosilni yig'ishdagi texnik cheklovlar	25–30	Afrika, Osiyo	Sovitish infratuzilmasi, agrotexnologiyalar	[2], [7]
2	Qayta ishlash va saqlash	Transport va energiya resurslari yetishmasligi	20–25	Lotin Amerikasi, Janubiy Osiyo	IoT sensor tizimlari, “smart storage”	[6]
3	Taqsimot (logistika)	Bozor va taqsimot zanjiridagi uzilishlar	10–15	MDH, Janubiy Yevropa	Blokcheyn asosida kuzatuv tizimlari	[2], [6]
4	Chakana savdo	Marketing siyosati va ortiqcha ishlab chiqarish	15	Shimoliy Amerika, Yevropa	Dinamik narxlash algoritmlari, AI tizimlari	[1], [4]
5	Iste'mol bosqichi	Ortiqcha xarid, saqlash madaniyatining sustligi	20–30	Barcha mintaqalar	Ta'limiy kampaniyalar, oziq-ovqat banklari	[5], [8]

1-jadvalda oziq-ovqat yo'qotishlari va isrofi yuzaga keladigan asosiy bosqichlar, ularning ulushi va tavsiya etilgan texnologik yechimlar keltirilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, ishlab chiqarish bosqichi va iste'mol darajasi eng ko'p yo'qotishlar ro'y beradigan sohalaridir. Ayniqsa, Afrika va Janubiy Osiyo mamlakatlarida hosil yig'ishdan keyingi yo'qotishlar 30 foizgacha yetadi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlarda iste'molchilar xulq-atvori asosiy sabab bo'lib, uy xo'jaliklarida ortiqcha xarid va noto'g'ri saqlash natijasida isrof hajmi 20–25 foizni tashkil etadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat isrofini kamaytirishning eng samarali yo'llari — raqamli texnologiyalar, iqlimga mos infratuzilma va ta'limiy tashabbuslarni birlashtirgan integratsion yondashuvdir. Misol uchun, Kanada, Germaniya va Yaponiyada ta'minot zanjiriga blokcheyn texnologiyasini joriy etish orqali mahsulot yaroqlilik muddatlarini real vaqt kuzatish natijasida isrof darajasi 22 foizdan 12 foizgacha kamaygan [2], [6].

Bundan tashqari, IoT tizimlari yordamida harorat va namlikni avtomatik nazorat qilish orqali saqlashdagi yo'qotishlar sezilarli kamaymoqda. “Smart warehouse” tizimlari yordamida har bir mahsulot uchun individual kuzatuv kodi beriladi, bu esa mahsulotlarning iste'molchi ehtiyojiga mos tarzda yetkazilishini ta'minlaydi. Natijada, ortiqcha ishlab chiqarish kamayib, narx barqarorligi saqlanadi.

Shuningdek, ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyatga ega. IRISO [5] va Ogburn va boshqalar [8] ta'kidlaganidek, past daromadli hududlarda oziq-ovqat isrofi ko'pincha iste'mol madaniyati va saqlash texnologiyalaridan xabardorlikning pastligi bilan bog'liq. Shu sababli, aholiga ma'rifiy kampaniyalar, oziq-ovqat banklarini tashkil etish va ehson mexanizmlarini rivojlantirish zarur.



Iqlim o'zgarishi ham isrof hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Haroratning oshishi natijasida tez buziluvchi mahsulotlar — meva-sabzavot va sut mahsulotlari — tezroq yaroqsiz holga keladi. Bu holat, ayniqsa, sovitish tizimlari zaif bo'lgan tropik hududlarda keskin namoyon bo'lmoqda.

Agar ishlab chiqarish, taqsimot va iste'mol bosqichlarida innovatsion yondashuvlar birgalikda qo'llansa, global miqyosda oziq-ovqat yo'qotishlarini 2030 yilgacha 50 foizgacha qisqartirish mumkin [1], [2], [6]. Bu esa nafaqat ochlik muammosini kamaytiradi, balki barqaror iqtisodiy o'sish, ekologik muvozanat va ijtimoiy adolatni ta'minlash uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Oziq-ovqat isrofi va yo'qotishlarini kamaytirish bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya, ekologik innovatsiyalar va ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan siyosat uyg'un qo'llangandagina barqaror oziq-ovqat tizimiga erishish mumkin. Shu bois, davlatlar darajasida blokcheyn va IoT texnologiyalarini joriy etish, qayta taqsimlash tarmoqlarini rivojlantirish hamda aholini isrofga qarshi ongli iste'molga o'rgatish asosiy ustuvor yo'nalish bo'lishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oziq-ovqat xavfsizligi, isrofi va yo'qotishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik global iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Oziq-ovqat tizimidagi nomutanosibliklar resurslar tanqisligi, ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishiga olib keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish strategik yondashuvlar, ilmiy asoslangan innovatsiyalar va xalqaro hamkorlik orqali amalga oshirilishi zarur. Oziq-ovqat yo'qotishlari va isrofini kamaytirish nafaqat axloqiy majburiyat, balki global miqyosda iqtisodiy zaruriyatdir. Bu jarayon barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini yumshatish va oziq-ovqat resurslariga adolatli kirishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, raqamli texnologiyalar, logistika tizimlarini modernizatsiya qilish va ta'limiy tashabbuslar uyg'unligida ishlab chiqilgan kompleks yondashuv eng samarali natijalarni beradi. Shu bois, davlat siyosati darajasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqatni qayta taqsimlash mexanizmlarini rivojlantirish hamda aholining ongli iste'mol madaniyatini oshirish global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Varzakas, T. and Smaoui, S., 2024. Global food security and sustainability issues: the road to 2030 from nutrition and sustainable healthy diets to food systems change. *Foods*, 13(2), p.306. <https://www.mdpi.com/2304-8158/13/2/306>
2. Heydari, M., 2024. Cultivating sustainable global food supply chains: A multifaceted approach to mitigating food loss and waste for climate resilience. *Journal of Cleaner Production*, 442, p.141037. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0959652624004840>
3. Tkemaladze, J., 2025. Concept to The Food Security. *Longevity Horizon*, 1(1), pp.2-14. https://www.researchgate.net/profile/Jaba-Tkemaladze-3/publication/387985933_Concept_to_The_Food_Security/links/67da2d4b7c5b5569dccc0e69d/Concept-to-The-Food-Security.pdf
4. Guiné, R.P., 2024. The challenges and strategies of food security under global change. *Foods*, 13(13), p.2083. <https://www.mdpi.com/2304-8158/13/13/2083>
5. IRISO, B.V., 2025. Assessment of the impact of municipal food waste on food security: A Review. *African Journal of Rural Development*, 10(2), pp.228-240. <https://afjrdev.org/index.php/jos/article/view/481>
6. Manzoor, S., Fayaz, U., Dar, A.H., Dash, K.K., Shams, R., Bashir, I., Pandey, V.K. and Abdi, G., 2024. Sustainable development goals through reducing food loss and food waste: A comprehensive review. *Future Foods*, 9, p.100362. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2666833524000686>
7. Arowosegbe, O.B., Ballali, C., Kofi, K.R., Adeshina, M.K., Agbelusi, J. and Adeshina, M.A., 2024. Combating food waste in the agricultural supply chain: A systematic review of supply chain optimization strategies and their sustainability benefits. *World Journal of Advanced Research and Reviews*, 24(1), pp.122-140. https://www.researchgate.net/profile/OluwakemiArowosegbe/publication/384695832_Combating_food_waste_in_the_agricultural_supply_chain_A_systematic_review_of_supply_chain_optimization_strategies_and_their_sustainability_benefits/links/67046931869f1104c6d1392c/Combating-food-waste-in-the-agricultural-supply-chain-A-systematic-review-of-supply-chain-optimization-strategies-and-their-sustainability-benefits.pdf
8. Ogwu, M.C., Izah, S.C., Ntuli, N.R. and Odubo, T.C., 2024. Food security complexities in the global south. In *Food safety and quality in the global south* (pp. 3-33). Singapore: Springer Nature Singapore. https://link.springer.com/cha/10.1007/978-981-97-2428-4_1



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>